

ABDULLA QAHHORNING "MAHALLA" HIKOYASI TAHLILI

Urganch davlat universiteti Filologiya

va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Shonazarova Parizod

Annotatsiya: Ushbu maqolada hikoyanavis Abdulla Qahhorning barkamol, nodir asarlaridan biri bo'lgan "Mahalla" hikoyasi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qahhor, Rohat buvi, "Yangi mahalla", Hikmat buva, qabriston, muhabbat, sadoqat, insoniy tuyg'ular, ichki kurashlar, hajv, hikoya.

Аннотация: В данной статье проанализирован рассказ «Махалля», который является одним из совершенных и редких произведений новеллера Абдуллы Каххора.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, Рохат буви, «Янги Махалля», Хикмат бува, кладбище, любовь, верность, человеческие чувства, внутренняя борьба, комедия, повесть.

Annotation: In this article, the story "Mahalla", which is one of the perfect and rare works of the short story writer Abdulla Qahhor, was analyzed.

Key words: Abdullah Qahhor, Rohat buvi, "Yangi Mahalla", Hikmat buva, cemetery, love, loyalty, human feelings, internal struggles, comedy, story

Ўзбек adabiyotida hikoya janrining shakllanishi bevosita Abdulla Qahhor nomi bilan bog'liq. Uning "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat", "Asror bobo", "Beshik", "Ming bir jon", "Anor", "San'atkor", "Adabiyot muallimi", "Mahalla" kabi bir qator hikoyalari adabiyotimizda hikoya janrining taraqqiy etishi uchun sezilarli darajada ta'sir

ko'rsatgan. Abdulla Qahhor hikoyalari tilining soddaligi, ya'ni kam so'z bilan ko'p narsani tushuntirishi, voqealar rang-barangligi va teran mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. M. Gorkiy "Badiiy asar so'z jihatdan siqiq, fikr jihatdan keng bo'lishi kerak", - deya ta'kidlaydi. Yozuvchi hikoyalari aynan shu fikrni isbotlaydi. Abdulla Qahhor hikoyalari tilida kinoyalar, kesatiqlar, qochiriqlar ko'p uchraydi-unda hajviylikka moyillik bor. Adib hikoyalarida acchiq haqiqat, davr illatlari va kamchiliklari hajv pardasiga shunday mohironalik bilab o'rab berilganki, ularni o'qiy turib ham kulasiz, ham kuyasiz. Yozuvchi hikoyalarining sevib o'qilishi, inson ruhiyatiga ta'sir etishi va umrboqiyiligining siri ham shunda.

Abdulla Qahhorning "Mahalla" hikoyasi badiiy jihatdan adibning barkamol asarlaridan biri hisoblanadi. Hikoya sarlavhasi yozuvchining ko'pchilik hikoyalari singari qisqa, ya'ni bitta so'zdan iborat. Bu ham Abdulla Qahhorni boshqa adiblardan ajratib turadigan xususiyatlardan biridir.

Hikoyaga Erkin Vohidovning

Inson bilan tirikdir inson,

Muhabbatda hayotning boshi.

Odamzodga baxsh etadi jon,

Odamlarning mehr quyoshi.

misralari epigraf qilib olingan.

Adibning ko'pchilik hikoyalarida epigraf mavjud. Ko'rinib turganidek, Abdulla Qahhor hikoya mazmuniga mos epigraf tanlay bilgan va shu orqali asar mazmunini ochib bera olgan mahoratli hikoyanavis hisoblanadi. Hikoyada Hikmat buvaning turmush o'rtog'i Rohat buviga bo'lgan sof muhabbati, mehri kitobxon diqqatini tortadi. Rohat buvining vafotidan so'ng Hikmat buva ruhsiz tanga aylandi-qoldi. Bu holatni Abdulla Qahhor "kasal musichaday bir chekkada qunishib o'tirar, aftidan, endi uning uchun olamda hech kim, hech narsa qolmagan edi. Shundoq Hikmat buva hafta

o'tar-o'tmas bir hovuch suyak bo'ldi-qoldi.Chol cho'zilib yotganda uning o'likmi-tirikmi ekanini bilish qiyin edi",-deya ta'riflaydi.Ellik uch yil! Axir ular ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz tatigan, bir ko'rpani bosgan,birga kulgan, birga yig'lagan;ellik uch yildan beri mushukchaday bir-biriga suykanib, bir-birini yalab,og'ritmay tishlab, yiqitib,yiqilib berib,piypalashib o'ynagan,ellik uch yildan beri mehr atalmish ulkan tuyg'u rishtasini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvib,bir-birining qalbini o'rab- chulg'ab kelgan edi.Ellik uch yil birga yashagan insondan ayrilish Hikmat buva uchun katta yo'qotish edi va u bu holatni oddiy qabul qilolmaydi.Hikmat buva tildan aytilgan "Ey Xudo,nima qilib qo'yding, bisotingdan menga atagan yana qanaqa kulfatlaring bor,to'k, boshimga hammasini birdan to'ka qol" jumalari haqiqiy o'zbek erining turmush o'rtog'iga bo'lgan haqiqiy muhabbatini,vafosini yaqqol ko'rsatib beradi.Hikoyada ta'sirchanlik kuchli. Ayniqsa,yozuvchi Hikmat buva va Rohat buvi munosabatlarini shu darajada ta'sirli qilib ifodalaganki, kitobxon beixtiyor ko'ziga yosh oladi.Adib so'zlardan mohironalik bilan foydalanadi,tanlab-tanlab, inson qalbiga yetib boradigan so'zlarnigina ishlatadi.Asar tilidagi har bir so'z o'z "yuki" ga ega bo'ladi.V.G.Korolenko uqtirganidek, "So'z shamol uchirib ketadigan o'yinchoq shar emas.U ish quroli,u ma'lum miqdordagi yukni ko'tarishi kerak.Biz boshqalarning ruhini qamrab olishiga,ko'tarishiga qarab turib,so'zning ahamiyati va kuchiga baho beramiz".Yozuvchining "Mahalla" va boshqa hikoyalari,umuman,barcha janrdagi asarlarida ishlatilgan so'zlarga qarab,so'zning ahamiyatiga,kuchiga,nafaqat so'zlarning balki adib mahoratiga ham yuksak baho berishimiz tabiiy. "Kampir alomat ayol edilar...Siz o'sha kuni o'zingiz bilan o'zingiz ovora bo'lib ta'ziyaga kelgan odamlarni payqamadingiz", "Onaxonimiz ta'rifga sig'maydigan ayol edilar" jumalari orqali Rohat buvining haqiqiy o'zbek ayoli, turmush o'rtog'ining muhabbati va vafosiga loyiq,sadoqatli ayol ekanligini bilib olish mumkin.Abdulla Qahhorning so'zga xasisligi o'quvchiga malol kelmaydi.Ya'ni,aytmoqchi bo'lgan fikrining tushunilishini og'irlashtirmaydi,aksincha,yengillashtiradi.Hikoyada Hikmat buva boshchiligida mahallaga sakkiz chelakli samovor olinadi,yuz ellik kishilik mahalla ro'zg'ori tashkil qilinadi.Majlisda bularning mutasaddisi kim bo'ladi,degan savolga hamma qiy-chuv

ko'tarib Hikmat buvani ko'rsatadi. Bu orqali mahalladagi insonlarning bu kabi mas'uliyatli vazifalarni, albatta, Hikmat buvaga topshirishini bilib olish mumkin. Chol esa ishonib topshirilgan vazifani sidqidildan bajaradi. Bu holatni "Har kuni ertalabdan xonadondan xonadonga, bor pulga bir nima olib qolish uchun magazindan magazinga, arz-dod qilgani idoradan idoraga yugurar edi", -deya ta'riflaydi Abdulla Qahhor. Biz bu o'rinlarda Hikmat buvani jonkuyar inson sifatida ko'ramiz. To'g'ri, yoshi katta chol bu ishlarni qilishga majbur emas-ku, deyish mumkin. Lekin Hikmat buva bu kabi ishlarga befarq bo'lolmaydi, mahalla uchun qo'lidan kelgancha yordam beradi. Shuncha ishlarga bosh-qosh bo'lishiga qaramay, orada kampirning mozoriga ham borib keladi. Hikoya insoniy hissiyotlarni, insoniy munosabatlarni aks ettiradi. Qahramonlarning ichki kurashlari va tuyg'ulari orqali hikoya yanada chuqurroq ma'noga ega bo'ladi. Abdulla Qahhor hikoyada mahalla hayotida o'zbek xalqining an'analari va qadriyatlari qanday ahamiyatga ega ekanligini tasvirlaydi. Bu kampirni dafn qilish marosimi davomida yaqqol ko'zga tashlanadi. Urf-odatlar, milliy madaniyatni aks ettiruvchi jihatlar hikoyada muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning "Mahalla" hikoyasi o'zbek adabiyotining noyob asari bo'lib, u o'zining hayotiyliigi, chuqur psixologik tahlili, yorqin va obrazli tili, badiiy uslubi bilan kitobxonni o'ziga tortadi. Abdulla Qahhor aytganidek, "agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, bundan oson ish bo'lmas edi. Hayotdan aynan ko'chirish, kitobdan ko'chirishday gap. Kopya kopya bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallaik kutish behuda. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, unga ko'ngildagi gaplarni singdirish, tilagingni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi".

Adibning realistik uslubi mahalla hayotining haqiqiy manzarasini yaratishga yordam beradi. Hikoyada mahalla nafaqat odamlar yashaydigan joy, balki ularning hayotining markazi, ijtimoiy munosabatlarning tug'ilish va rivojlanish maydoni sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xta Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" Toshkent- "O'zbekiston"-2002
2. Abdulla Qahhor "Anor" Ziyo Nashr Toshkent-2023
3. Abdulla Qahhor "Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga" maqolasi
4. Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi" Toshkent "O'qituvchi"-1980